



NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINING JAMOATCHILIK MUHOKAMASI: XORIJIY TAJRIBA

Sherov Quvondiq Polvonnazarovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

quvondiq1191@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7553920>

ARTICLE INFO

Received: 10th January 2023

Accepted: 19th January 2023

Online: 20th January 2023

KEY WORDS

Jamoatchilik muhokamasi, normativ-huquqiy hujjat, qonun loyihasi, portal, taklif, fikr-mulohaza.

ABSTRACT

Mazkur maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi, normativ-huquqiy hujjat loyihalarining onlayn muhokamasini takomillashtirish masalasi, normativ-huquqiy hujjat loyihalari yuzasidan jamoatchilik eshituvi kabi tushunchalar muhokama qilingan. Maqolada normativ-huquqiy hujjat loyihalarining muhokamalarini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajriba orqali qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Bugungi kunda yurtimizda ishlab chiqilayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari keng jamoatchilik bilan, xalq bilan muhokama qilinib, aholining fikr-mulohazalari, takliflarini inobatga olgan holda takomillashtirilmoqda, xalq manfaatlariga xizmat qiladigan puxta ishlangan qonunlar qabul qilinmoqda.

Qabul qilinadigan qonun loyihalarini aholi bilan muhokama qilish tizimini yanada takomillashtirish masalasi muhtaram yurtboshimiz tomonidan bir necha marotaba ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Asosiy Qomusimiz qabul qilinganligining 26 yilligi munosabati bilan so'zlagan ma'ruzasida aytganlaridek, "Har qanday qonun hujjatini qabul qilishdan pirovard maqsad – qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini ijrochilar va aholiga o'z muddatida yetkazib berish, ularni amalga oshirishni qat'iy ta'minlashdan iborat" [1].

Darhaqiqat, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, qonunlarning birdan-bir manbayi xalq bo'lishi lozim.

Fuqarolar ham mazkur islohotlarni chuqur anglagan holda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamalarida faol ishtirok etmoqda. Bu bilan fuqarolar o'zlarining jamiyatda ro'y berayotgan turli o'zgarishlarga beparvo emasliklarini namoyon etishmoqda.

Shunday ekan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini yanada takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolada kuzatish, analiz, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan keng foydalanildi.



Shuningdek, mutaxassislar H.Odilqoriyev va I.Tulteyevning “Ikki palatali parlament” darsligidan, A.Yo‘ldoshevning “O‘zbekistonda qonun hujjatlari loyihalarini fuqarolik jamiyati institutlari bilan kelishish holati va istiqbollari” nomli maqolasidan, xorijlik mutaxassislar V.Pinayev va T.Kuxtinaning “Современная практика проведения общественных обсуждений в России”, V.Ivashkevichning “Общественное обсуждение проектов нормативных правовых актов: отечественный и зарубежный опыт” maqolasidan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish bo‘yicha huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, bu borada O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi, 2002-yil 12-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni, 2003-yil 29-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Reglamenti to‘g‘risida”gi, 2006-yil 11-oktabrda “Qonun loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 20-aprelda “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunini alohida ta‘kidlash o‘tish lozim. Mazkur Qonunlarda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining umumxalq va jamoatchilik muhokamalari hamda jamoatchilik eshituvini tashkil etish masalasi belgilab berilgan.

Professor H.Odilqoriyevning fikricha, qonun loyihasi ikki xil tartibda muhokama qilinadi: aksariyat qonunlarning loyihalari umumiy qoidaga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining majlislarida muhokama etiladi; mamlakat hayotining o‘ta muhim masalalarini tartibga solishga qaratilgan qonunlarning loyihalari esa keng xalq muhokamasiga chiqariladi [2].

Xorijiy mamlakatlarda ham qabul qilinadigan qonunlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasini tashkil etishga, aholini fikrini o‘rganishga alohida e‘tibor beriladi, shu orqali xalqchil qonunlar qabul qilinishiga erishiladi.

Ushbu sohada Rossiya Federatsiyasida ham o‘ziga xos tizim yaratilgan va bu muntazam ravishda qo‘llanib kelinmoqda. Jamoatchilik muhokamasi va jamoatchilik eshituvi masalalari “Rossiya Federatsiyasida jamoatchilik nazorati asoslari to‘g‘risida”gi, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni tashkil etishning umumiy asoslari to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlarda belgilab qo‘yilgan.

Mazkur qonunlarga binoan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiquvchilar loyiha yuzasidan jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazadilar. Rossiya Federatsiyasida loyihani ishlab chiqqan organ tomonidan mahalliy hokimlik vakillari bilan birgalikda jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazishda hamkorlik qilinadi va hududlarda aholi ishtirokida muhokamalar o‘tkaziladi. Muhokamalar davomida quyidagilar amalga oshiriladi:

- aholini zarur axborot bilan ta‘minlash;
- jamoatchilikni qiziqtirgan savollarga javoblar berish;
- muhokamalar va eshituvlarni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash;
- qaror qabul qilishda fuqarolarning huquq va manfaatlarini hisobga olish.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari qoida tariqasida o‘z hududida o‘tkaziladigan muhokamalarga raislik qiladi va yig‘ilishlarni olib boradi [3].



Jamoatchilik muhokamalari mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilgan reglamentga qat'iy muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Rossiya Federatsiyasi subyektlarida jamoatchilik muhokamalari yuqoridagi tartibda amalga oshiriladi.

Dunyoda yangi koronavirus infeksiyasi COVID-19 tarqalishi munosabati bilan Rossiya Federatsiyasining ko'plab hududlarida koronavirus tarqalishining oldini olish bo'yicha bir qator profilaktik choralar, shu jumladan ommaviy tadbirlarni taqiqlash ishlari amalga oshirildi. Shunga qaramay, pandemiya sharoitida ham muhokamalar to'xtab qolmadi va turli xil shakllarda tashkil etildi.

Jumladan, jamoatchilik muhokamalari masofaviy (onlayn) shaklda tashkil etilib, takliflar aloqa vositalaridan foydalangan holda qabul qilindi va barcha muhokamalar onlayn tashkil etildi, jamoatchilik muhokamalarida aholini xabardor qilishning quyidagi shakllari va usullaridan foydalanish amaliyoti tizimli yo'lga qo'yildi:

- internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'ida va hokimlik ma'muriyatining rasmiy veb-saytida zarur materiallarni joylashtirish;
- takliflarni yozma yoki elektron pochta orqali yuborish orqali to'plash;
- rasmiy veb-saytda joylashtirilgan takliflarni kiritish uchun maxsus shaklni to'ldirish;
- ommaviy eshituvlarni videokonferensaloqa dasturlari (masalan, ZOOM yoki Skype) yordamida onlayn tarzda o'tkazish.

Boshqa xorijiy mamlakatlarda jamoatchilik muhokamalari quyidagicha tartibda amalga oshirilmogda.

Amerika Qo'shma Shtatlari Respublikachilar partiyasi o'z a'zolari bilan aloqa o'rnatish uchun maxsus platforma ishlab chiqqan bo'lib, bu platformada fuqarolar ishtirokida muhokamalarni tashkil etib borishadi. Shuningdek, AQShda jamoatchilik muhokamalari qonun loyihalarini kelishish jarayoni bilan uyg'unlikda amalga oshiriladi [4].

Germaniya Federativ Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish o'ta murakkab jarayon hisoblanadi.

Germaniya Federativ Respublikasi Hukumatining 2000-yil 1-sentabrdagi Qaroriga muvofiq, qonun loyahasini tayyorlagan vazirlik federal kasaba uyushmalari yoki butun Germaniya kasaba uyushmalari vakillari bilan birgalikda qonun loyahasining muhokamasini tashkil qiladi. Bunda qabul qilinadigan yangi qonun hujjatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion normalar, manfaatlar to'qnashuvi kabi holatlar keng jamoatchilik bilan muhokama qilinib, aholi noroziligiga sabab bo'luvchi normalar qonun loyhasidan chiqarib tashlanadi. Ushbu jarayonda keng jamoatchilik va matbuot vakillarining o'rni beqiyos sanaladi.

Polsha Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish tartibi Polsha Hukumatining 2002-yil 20-iyundagi "Qonunchilik texnikasi to'g'risida"gi Qarorida bayon etilgan. Hujjatda qonun loyahasini ishlab chiqishga vakolatli subyektning qonun ijodkorligi faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar o'tkazish bilan boshlashi lozimligi aniq belgilab qo'yilgan.

Vazirlar Kengashining amaldagi reglamentida qonun loyihalarini ko'rib chiqish uchun bosqichda amalga oshiriladi:

- kelishuv;
- jamoat tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar;



davlat idoralari bilan maslahatlashuvlar.

Agar yuqoridagi bosqichlardan o'tish natijasida qonun loyihasi tubdan o'zgartirilsa, u holda jarayon yana takrorlanadi.

Qonun loyihasi ko'rib chiqilishida har qanday nodavlat notijorat tashkilotlari, manfaatdor muassasalar ishtirok etishlari mumkin.

Qozog'iston Respublikasida 2016-yilda "Normativ-huquqiy hujjatlarning ochiqligi" (legalacts.egov.kz) portali ishlab chiqilgan va normativ-huquqiy hujjatlarni muhokama qilish uchun yagona platforma hisoblanadi. legalacts.egov.kz portali fuqarolarning jamoatchilik tashabbuslari, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining qarorlari loyihalarini ko'rib chiqishda ishtirok etishini ta'minlaydi. Portalda muhokamalarning yakuniy xisobotlari ham e'lon qilinadi [5].

Belorus Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi "Belarus yuridik forumi" sayti (forumpravo.by)da o'tkazilmoqda. Forum 2013-yil 31-iyulda ish boshlagan va unda Belarus Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet elliklar ishtirok etishi mumkin.

Forumning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish;

yuridik xizmatlar ko'rsatish;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini keng muhokama qilishni tashkil etish;

advokatlik kasbining nufuzini oshirish;

huquq sohasidagi mutaxassislarning kasbiy o'sishiga ko'maklashish.

Demak, xalqaro tajribadan ham ko'rish mumkinki, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish – qonun chiqarish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, yurtimizda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

Birinchidan, hozirgi globallashtirish sharoitida qonun loyihalari jamoatchilik muhokamalarini o'tkazishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha internet resurslaridan yanada samarali foydalanish, normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portali – regulation.gov.uz saytini yanada takomillashtirish;

Ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish jarayonida davlat organlari, ilmiy muassasalarning malakali mutaxassislari, fuqarolik jamiyati institutlarining mas'uliyatini oshirishga e'tibor qaratish;

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan hududlarda fuqarolar ishtirokida muhokamalar tashkil qilish tizimini yanada rivojlantirish;

To'rtinchidan, televideniya normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga bag'ishlangan ko'rsatuvlar tashkil qilish va fuqarolarni keng jalb qilish zarur.

Muhtasar qilib aytganda, qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamalari masalasiga katta e'tibor qaratish, tizimni yanada isloh qilish nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda sohani yanada takomillashtirish fuqarolarimizning jamoatchilik muhokamalarida



yanada faol ishtirok etishlari va bu orqali mustahkam va takomillashgan qonunlar qabul qilinishiga zamin yaratiladi.

References:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/2180>
2. Odilqoriyev H.T., Tulteyev I.T. Ikki palatali parlament. Darslik – Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005.
3. Пинаев В.Е., Кухтина Т.Ю. Современная практика проведения общественных обсуждений в России //Интернет-журнал «Отходы и ресурсы», 2020 №4, <https://resources.today/PDF/09ECOR420.pdf>
4. Yo‘ldoshev A. O‘zbekistonda qonun hujjatlari loyihalarini fuqarolik jamiyati institutlari bilan kelishish holati va istiqbollari // Review of law sciences, vol. 3, 2020.
5. Ивашкевич В.А. Общественное обсуждение проектов нормативных правовых актов: отечественный и зарубежный опыт. статья в сборнике статей. – 2017.